
TIKUV MASHINASI BERILGAN XOTIN-QIZLAR UYIDA TIKUVCHILIK QILIB, RO'ZG'ORIGA DAROMAD KELITIRMOQDALAR

Toshloq tumani "Aylanmajar" mahallasida yashovchi Umrchaxon Sobirova "Yoshlar daftari"ga kiritilgan edi. Mahalla hokim yordamchisi Muhammadjon Xonqulov tomonidan tadbirkorlik qilish niyatida yurgan Umrchaxonga tikuv mashinasi subsidiya asosida olib berildi. Hozirda uning bandligi ta'minlanib "Yoshlar daftari"dan chiqarildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga berilgan imtiyozdan foydalangan Umrchaxon Sobirova mahallasidagi 3 nafar yoshga ustozlik qilib tikuvchilik faoliyatini yuritmoqda. U subsidiya asosidagi tikuv mashinasidan unumli foydalanib, oilasini moddiy ta'minlamoqda.

"Xonaqa" MFYda yashovchi Odinaxon Mirzaaxmedova ham "Ayollar daftari"ning ishsizlik toifasiga kiritilganligi bois, mahalla hokim yordamchisi tomonidan subsidiya asosida tukuv mashinasi ajratildi. Natijada O.Mirzaahmedovaning bandligi ta'minlanib, o'z daromadiga ega bo'lmoqda.

2023-07-08 17:49:47